«Tasdiqlayman»
“O‘zmilliybank” AJ
Buxoro viloyat Bosh
boshqarmasi boshlig’i v.b
_____O.N.Shodiyev

“O‘zmilliybank”AJ Romitan Bank Xizmatlar Markazida o’tqazilgan davra suxbati

B A YO N N O M A S I №102

Romitan tuman **«10» iyun 2026 y**

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Romitan BXM boshqaruvchisi N.Z.Raxmatov

Qatnashdilar: “O‘zmilliybank” AJ Romitan BXM xodimlari qatnashdilar. Jami 24 nafar xodim ishtirok etdi.

KUN TARTIBIDAGI MASALA

Bank xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to’qnashinuvini oldini olish hamda bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “O’zmilliybank” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (2023 yil 01-mart №645);O’zmilliybank” AJ hududiy va tarkibiy bo’linmalarida manfaatlar to’qnashuvini boshqarish bo’yicha NIZOM (2022 yil 10-mart №606); talablariga qat’iy rioya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ya’nada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari bilan tanishib chiqish.

(Romitan BXM barcha xodimlar)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi S.Ismatov yig‘ilishni ochib, bugingi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha O’zbekiston Respublikasida Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan islohotlar haqida gapirib qonun ustuvorligini ta’minlanishini qat’iy nazoratga olinishi, xodimlar o‘rtasida qonun, tartib-intizom, yuksak manaviy holatini ushlab turish, jinoiy moyil insonlarni aniqlash va oldini

olish, Bank kasb – odob axloq kodeksiga to‘liq rioya qilinishi, xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda xodimlarda halollik vaksinasini shakillantirish yuzasidan so‘z yuritdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yilda ‘favqulodda holat’ e’lon qilamiz”**, deya ta’kidlanganligi, bu fikr davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, mas’ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish hamda korrupsion holatlarga mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan muhim siyosiy irodaning yaqqol ifodasi ekanligi haqida fikr yuritib O’zbekiston Respublikasi **Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi Qonuni(2017 yil 03-yanvar №419)**ga amal qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish yuzasida ta’kidlab o’tildi. Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan **“O’zmilliybank” AJ hududiy va tarkibiy bo’linmalarida manfaatlar to’qnashuvini boshqarish bo’yicha NIZOM (2022 yil 10-mart №606)** hamda **“O’zmilliybank” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (2023 yil 01-mart №645)** yuzasidan ma’lumotlar aytib o’tdi va ushbu nizom va qonunlarga qat’iy rioya qilinishi to’g’risida barcha xodimlar ogoxlantirildi.

Shuningdek, O’zmilliybank AJ Romitan BXM boshqaruvchisi N.Raximov so’z olib, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qancha chora tadbirlar olib borilayotganligi, korrupsiyega oid xuquqbuzarliklarni o’z vaqtida aniqlash, ularga chek qo’yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar vas shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi to’g’risida gapirib Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mavjudligi va bu mamlakatimizda barcha sohalarda birdek amal qilishi, qonunning ustivorligi va jazoning muqarrarligini barchamiz birdek his qilishimiz zarurligi takidlandi. Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida muxim tashkiliy-xuquqiy isloxotlar amalga oshirildi. Axolining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatnini oshirishga, jamiyatda korupsiyaga murosasiz munosobatni shakillantirishga yunaltirilgan tizimli choralar ko‘rildi. Davlatimiz raxbari tomonidan jinoyatchilik va korupsiya bizning o‘z xavfsizligimizga xam, xalqaro xavfsizlikka xam taxdid soluvchi real manbadir deb aytib o‘tilgan. Binobarin, mazkur xodisaga qarshi kurashish masalalari birgina bizga taa’luqli emas, shuning uchun xam biz, jinoyatchilik xaqida butun jaxon xamjamiyati qayg‘urmog‘i lozim, deb xisoblaymiz. Suveren O‘zbekiston xalqi va raxbariyati esa ular bilan faol xamkorlik qilishga tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta’minlash ishiga qo‘shilgan xissa deb biladi, deb fikr bildirgan edilar. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoyatchi unsurlarni xo‘jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug‘dirishi, bu esa o‘z navbatida mamlakat uchun xam jaxon xamjamiyati uchun xam nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining aloxida turi shakllanishiga olib kelishi haqdida gapirib o’tdilar.

419-sonli Qonunga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi hamda O‘zmilliybankning chora-tadbirlar Rejasi bo‘yicha axolining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz

munosabatni shakllantirish maqsadida O‘zmilliybank xodimlari o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot tushuntirish ishlari olib borilib xozirgi kunda bankka kelayotgan xar bir mijozlarga xodimlar tomonidan xushmuomala munosabatda bo‘lishlik, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida gapirib otildi. Yig’ilish ochiq tarzda Romitan BXM xodimlarnmning ishtirokida o‘tkazilib, yig‘ilish qatnashchilariga Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hamda manfaatlar to’qnashuvi yuzasidan tushunchalar yetqazildi.Majlis so‘ngida kun tartibidagi masalalar yuzasidan

QAROR QILADI:

1.“O‘zmilliybank” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi S.Ismatov ma‘ruzasi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Barcha xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qat’iy amal qilish ustidan nazorat kuchaytirilsin. Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “O’zmilliybank” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (2023 yil 01-mart №645);O’zmilliybank” AJ hududiy va tarkibiy bo’linmalarida manfaatlar to’qnashuvini boshqarish bo’yicha NIZOM (2022 yil 10-mart №606); talablariga qat’iy rioya qilinshi ta’minlansin.

3.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan majburiyatlar va talablarni buzilishi aniqlangan xolatlarda raxbar va xodimlarga nisbatan jiddiy jazo choralari ko‘rilishi haqida ogohlantirilsin.

Yig‘ilish kotibi: **M.Ostonova**

Tanishdim: